

## BADIY MATNGA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV MASALALARI

**Isomova Gulnoza,**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy matnning lingvokulturologik jihatdan o‘rganilishi masalalariga e’tibor qaratilgan. O‘zbek she’riyati, xususan, Farg‘ona adabiyoti badiiy matnining lingvomadaniy yondashuvda o‘rganish asoslari va maqsadi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** badiiy matn, lingvokulturologiya, milliy xususiyat, anropologik paradigma, Farg‘ona she’riyati, E.Siddiqova, B.Iso.

Ma’lumki, XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi etakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu yangi yo‘nalish tilni madaniy fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, uning predmetini o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: ”Lingvokulturologiya inson omilini, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”.

V.V.Vorobyev ”Lingvokulturologiya sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo‘lib, u madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o‘rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birlıklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me’yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi” deb ta’kidlaydi.

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san’at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o‘z-o‘zini anglash xususiyatini o‘rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o‘rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o‘zaro ta’sirlanish holatida bo‘lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.

”Ijtimoiy hayotdagi ba’zi predmetlarni hamda yuzaga keladigan voqe-a-hodisalarini madaniyat vositasi desak adashmaymiz. Masalan, osmon jismlari bo‘lgan quyoshni

va oyni madaniyat vositasiga kiritish mumkin emasdek tuyuladi. Ammo barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalarning mavjud ekanligi ma'lum. Ammo ba'zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari (germanlar, slavyanlar) quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobjiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirilib, salbiy baholanadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi deb emas, balki madaniyatning ramziy belgisi sifatida tushunsa bo'ladi".

Janubda yashovchi xalqlar madaniyatida oy alohida e'tirof bilan tilga olinadi. Ruslar ongida u qorong'ilik, oxirat bilan bog'lanib, ba'zida hayot va mamot bilan (жить "под луной", "в подлунном мире" – hammaning hayoti birdek sharoitda kechadi) tasavvur qilinsa, oy nuri boshqa millat slavyanlarda homilador va norasidalar uchun xavfli, ziyon keltiradigan hodisaga qiyoslanadi. vietnamliklarda esa boshqa janubiy Osiyo xalqlaridagi kabi oyga munosabat tamoman boshqacha, ya'ni ular oy kalendar bo'yicha yashashadi, maxsus nishonlanadigan *Oy bayrami* bolalarning sevimli bayrami hisoblanadi. Go'zal, nozik va beg'ubor yosh qizlar oyga o'xshatiladi, sevishganlar oy yorug'ida suhabat qurib oyga bag'ishlab she'rlar to'qishadi. Shuning uchun Vietnam xalqi hayotidagi barcha ezguliklarni *oy* orqali tasavvur qiladilar. Shu kabi oyga munosabat – o'zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki o'zbeklarda oy quyoshdan nur olib, yog'du soluvchi samoviy jismgina emas ("oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" – maqol), balki "go'zal, chiroyli yuz" (masalan, oy yuzini qora chimmat zulmidan qutultirg'il) juda go'zal, juda ham chiroyli (Oy desa oyga, kun desa kunga o'xshaydi), safarga ketayotgan kimsaga yaxshilik tilash (Oy borib, omon qayt) ma'nolarida ishlatiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda tilni o'z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Bu tilshunoslikda til birliklarining millatning milliy-mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida o'rghanish ehtiyojini oshirdi. Zero, milliy mentalitetga xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, xalqning milliy tafakkuri bilan bog'liq jihatlar tilning asrlar davomida shakllangan barqaror birliklarida yorqin aks etadi.

Dunyo tilshunosligida til va tafakkur, til va madaniyat munosabatdorligi masalasi antik davrdan boshlab faylasuf va tilshunoslardan e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. XX asr so'ngi va XXI asr tilshunosligida til antropologik hodisa sifatida tan olinib, asosiy e'tibor lisoniy hodisalarini insonning kognitiv tabiatini hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan birgalikda tadqiq etishga qaratildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo‘nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zero, «Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minalash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir». Shuning uchun «biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariiga amal qilib, ularning g‘oyalarini teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz». Bu tilimizni milliy ong va milliy tafakkurning ifodasi sifatida lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish, uning betakror jozibasini ko‘rsatishga qaratilgan izlanishlarni ham faollashtirishni taqozo etadi.

Ta’kidlanganidek, XX asrning oxirlaridan jadal rivojlanib borayotgan antropotsentrik paradigma lisoniy tizimni inson prizmasi orqali o‘rganadi. Ya’ni, til o‘z subyekti, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati va boshqa ajralmas xislatlari bilan birga tadqiq etiladi. Bunday yondashuvda “fan obyektlari, birinchi navbatda, inson uchun uning hayoti faoliyatida, shaxsning rivojlanishi uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan o‘rganiladi”. XXI asr tilshunosligi til hodisalarini o‘rganishda uni lisoniy shaxs madaniyati bilan munosabatda yoritishga ham katta ahamiyat bera boshladi. Xususan, zamonaviy o‘zbek she’riyati badiiy matnini lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish o‘zbek millatining mentaliteti, milliy ongingin o‘ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi mohiyatini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, badiiy matnning lingvokulturologik tadqiqi borasidagi ishlar salmog‘ini yildan yilga oshib bormoqda, deyish mumkin. Jumladan, Sh.Norova, F.Usmanov, D.Jamoliddinova tadqiqotlarida o‘zbek tilidagi til birliklarining lingvokulturologik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Mazkur ishlarni o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya yo‘nalishining bugungi taraqqiyotiga munosib hissa deb ayta olamiz. Shunga qaramay, tilshunosligimizda badiiy matnning, xususan, zamonaviy o‘zbek she’riyati tilining lingvomadaniy o‘ziga xosliklarini tadqiq etishga qaratilgan ishlarni yetarli emas, deb baholash mumkin. O‘zbek adabiyotida salmoq va badiiy yuksaklik jihatidan alohida o‘rin tutgan Farg‘ona adabiyoti, xususan, she’riyati tilini tilshunoslik nuqtayi nazardan o‘rganishga qaratilgan dissertatsion ishlar ko‘zga tashlanmaydi. Farg‘onalik shoir va yozuvchilar ijodini lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan jiddiy ishlar ham mavjud emas.

O‘zbekiston xalq shoiri Enaxon Siddiqova va taniqli shoir Bahodir Iso she’riyati misolida Farg‘ona she’riyati tilining lingvokulturolik o‘ziga xosliklarini o‘rganish juda muhimdir. Bu orqali, avvalo, o‘zbek she’riyatida farg‘onalik ijodkorlarning o‘rni til va badiiy mahorat uyg‘unligida ochib berilsa, ikkinchi tomondan Farg‘ona adabiy muhiti vakillari ijodida aynan milliy-mental xususiyatlarning aks etishi, badiiy matnning lingvomadaniy qirralari aks etgan lisoniy birliklarning ifodalanishi kabi jihatlarga e’tibor qaratiladi.

Ikki zabardast ijodkor – Enaxon Siddiqova va Bahodir Iso she’riyati o‘zbek zamonaviy nazmining alohida qimmatga ega bo‘lgan badiiy ijod gulshanlari hisoblanadi.

Aytish kerakki, xalqimizning dilbar shoirasi, Farg‘ona adabiy muhitining yirik vakilasi Enaxon Siddiqova ijodi ona tilimizning o‘ziga xos jozibasi, beqiyos qirralarini o‘zida aks ettirgan nodir she’riyat sifatida alohida qimmatga ega. Enaxon Siddiqova she’rlarida “fikr va tasvir uyg‘unligi, mavzuning hissiy-emotsional ohangga yug‘rilgani, obrazning predmetlashgani” uning ijodiga xos alohida qirralarni ko‘rsatadi. Shuning barobarida, shoir aks ettiqoniga badiiy matnining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari juda keng bo‘lib, alohida ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘la oladi. Olimlar shoiraning she’rlariga baho berar ekan, u asarlarida inson deb atalgan sehrli xilqatning go’zal fazilatlarini alqaydi, himoya qiladi, olqishlaydi, insonga ishonch ruhi, samimiyat uning ijodida badiiyatning teran timsoli bo‘lib gavdalanadi, qayd etganlari bejiz emas.

“Odamlarning ocharmi ko‘zin, Bu qandoq ishq, Qanday munojot?! Milliard qushlar Haqqa tizilib, Subhi sodiq qilar ibodat.

G‘aflat bosmas birorta qushni, Birortasi yo‘ldan ozmagan. Odamlar ham qush asli faqat, Faqat... faqat... qanot yozmagan”

kabi satrlar shoiraning o‘ziga xos she’riyat yo‘li, adabiyotdagi aytar so‘zi, yoniq qalbi va hayotga, insoniyatga cheksiz ehtiromidan nishona berib turadi.

Shoiraning “Qorako‘z turnalar”, “Sumanbar nasim”, “Ko‘nglim ufqlari”, “Ishq ifori”, “So‘z ustidagi dunyo”, “Sizni dedim” kabi o‘nlab she’riy to‘plamlari, shuningdek, “Sirli tun faryodi”, “Sehrli tush” nasriy asarlari, “Ona haqida qo‘shiq”, “Barxanlarda ungan gul”, “Vatanga baxshida umr” nomli liro-epik dostonlari chop etilgan bo‘lib, E.Siddova ijodi nafaqat ayol qalbining inja hislari jarangi, balki Farg‘ona farzandining vatanparvarlik va elsevarlik ruhi bilan sug‘orilgan ijod gulshani sifatida ardoqlidir.

Farg‘ona adabiy muhitining yana bir taniqli vakili, shoir Bahodir Iso nomi o‘zbek she’riyatining o‘z so‘zi va qalamiga ega ijodkorlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Rishton farzandi Bahodir Iso 1977-yilda Farg‘ona pedagogika institutini tugallagan bo‘lsa-da , o‘z faoliyatini, asosan, adabiyotga, san’atga bog‘lagan.Uning she’rlari, dostonlari respublikamizning nufuzli nashrlarida, jamoaviy to‘plamlarda chop etilgan. 1988-yilda ilk kitobi - «Xayrli tun» she’riy to‘plami nashr etilgan.

Mustaqillik yillarida shoirning “Odamlar ichidan odam izladim” (2005), “Yaxshilar bor, yaxshiyam” (2008), “Otam kutgan kunlar” (2013), “Muhammad Yusuf” (doston, 2014), “Kuy tili” (2015), “Qishloqdagi shoir” (2016) nomli she’riy kitoblari chop qilingan. Bahodir Iso O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Shuhrat” medali, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi” unvoni bilan taqdirlangan.

Shoirning ba’zan og‘ir o‘ylar, ba’zan esa yengil tabassum bilan yozilgan satrlari o‘quvchining yuragiga yetib boradi, uni oshiq qiladi, she’riyatga mehr qo‘yishga undaydi. Uning

Boshiga tosh bilan bir ursam...», deb o‘ylaydi kimdir men haqimda. «Boshini bag‘rimga bossam...», deb o‘ylaydi kimdir men haqimda. Men esa ko‘tarib yuraman o‘sha — ming marta tosh tegib yorilgan, issiq bag‘irlarda dimiqqan, hamma uchun qiziq boshimni... kabi satrlarida esa Bahodir Isoning hech kimnikiga o‘xshamagan ovozini eshitganday bo‘lasiz.

Ta’kidlash kerakki, Farg‘ona adabiy muhitining ikki zabardast vakillari –Enaxon Siddiqova va Bahodir Iso she’riyatining o‘ziga badiiy lisoniy xususiyatlari o‘rganish, ijodkorlarning badiiy til mahorati, uslubini ochib berish, ayniqsa, ular ijodining milliy mental o‘ziga xosliklarini yoritish bugungi o‘zbek tilshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Манба: <http://lex.uz/docs/4561730>
2. Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи /Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – №196 (6860).
3. Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол.фнал.д-ри DSc.дисс. –Тошкент, 2021.

4. Норова Ш. Аскад Мухторнинг бадиий тил маҳорати (“Чинор” романи мисолида). Филол.фанл. б-ча фалс.д-ри.дисс. –Тошкент, 2023.
5. Сиддиқова Э. Қўнглим уфқлари. –Тошкент, 2004. –Б.4.
6. Телия В.Н Русская фразеология:семантический прагматический и лингвокултрологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.
7. Токарев.Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л.Н.Толстого, 2009. – С. 6.
8. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқики. Филол.фанл.б-ча фалс.д-ри.дисс. –Тошкент, 2020.
9. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. – М., 1997.
10. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Икки томли / З.М.Маъруфов таҳрири остида. – М.: Русский язык, 1981.
11. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/enaxon-siddiqova/>